



Abdiraimova Shaxnoza Abdugappar qizi,

“Oila va xotin qizlar” ilmiy-tadqiqot

instituti kichik ilmiy xodimi

EKOLOGIK OMILLARNING GENDER TENGLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik omillarning gender tengligidagi ahamiyati, ayollarga ekologik omillar ta'siri, ekologik muammolar hamda O'zbekistonda ba'zi ekologik sohalarida ayollarning ulushi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: gender tengligi, ekologik omillar, oila, tabiiy resurslar, atrof-muhit, iqlim.

Аннотация. В данной статье анализируется значение экологических факторов в обеспечении гендерного равенства, влияние экологических факторов на женщин, экологические проблемы, а также доля женщин в некоторых экологических отраслях Узбекистана.

Ключевые слова: гендерное равенство, экологические факторы, семья, природные ресурсы, среда, климат.

Annotation. This article analyzes the importance of environmental factors in ensuring gender equality, the impact of environmental factors on women, environmental problems, as well as the proportion of women in some environmental sectors in Uzbekistan.

Keywords: gender equality, environmental factors, family, natural resources, environment, climate.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz”, – deya ta'kidlagan.

Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilishadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Ayollarning faqat uy ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi, “yo oila, yo ish” qabilidagi fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rib turibmizki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og'ir masalalardan biridir. Ming afsuski, xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish

jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham, juda katta qiyinchiliklar va hatto yo'qotishlar (bunda ko'pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlarga duch keladi) evaziga erishadi¹.

Gender inson bilan munosabatlarni belgilovchi o'ziga xos omil hisoblanadi. Ayollar va erkaklarning tabiiy resurslarga munosabati, mas'uliyati, bilimi har xil ehtiyojlari turli ko'rinishlarga ega.

Ayollarning huquq va imkoniyatlardan mahrum bo'lishiga hissa qo'shuvchi omillarda biri erkaklarda ayollarga nisbatan egalik qilishning yuqoriligi hisoblanadi. Shuningdek, ayollarning tabiiy resurslar faoliyati bilan shug'ullanishiga hamda tog'-kon resurslariga kirish imkoniyati cheklangan yoki turli to'sqinliklar mavjud. Mustaqil qaror qabul qilish, bozorlar, kapital, kadrlar tayyorlash

¹ Muhitdinova F. Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglikning huquqiy asoslari // Янги Ўзбекистон.

va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining kamligi uy-xo'jaligi ichidagi mas'uliyatini ikki barobar oshiradi. Natijada ularning salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism. Gender va ekologik omillarni qator olimlar va ilmiy tadqiqotchilar A.V.Korotkevich, A.E Monastireva, F. Muxitdinova bilan bir qatorda, xalqaro tashkilotlar tomonidan ham tadqiqotlarning muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Ekologiya va gender tengligini tadqiq etgan olimlar ichida A.A.Nexvyadovich davlatlarning barqaror rivojlanish chora-tadbirlari, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, ayollarning gender tengligiga erishish harakatlarini tahlil qilgan².

Hozirgi kunda insoniyatning ekologiyaga qiziqishi ortib bormoqda. Ayniqsa, gender tengligi va ekologiya sohasida imkoniyat eshiklari ochilishi, ya'ni ayollarga tabiiy resurslar faoliyatida ishlashi hamda gender qarorlarni qabul qilish imkoniyatlari berilishi kutilmoqda. Gender tengligi va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish barqaror rivojlanish uchun zarur shartdir. Ayollar ko'pincha iqlim o'zgarishiga moslashishda katta tajribaga ega, ammo ular rahbar sifatida juda kam. Soha mutaxassislari, jumladan, atrof-muhit masalalari, gender, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, universitetlar hamda turli tadqiqot institutlari atrof-muhitni barqaror rivojlanish sohasida gender tengligi va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradigan yoki to'siq bo'lib xizmat qiluvchi omillarni aniqlash uchun yordam beradi.

Tahlillarga ko'ra, ayollar ish topishda erkaklarga nisbatan ko'proq qiynaladi³.

Ayollar o'zlarini turli sohalarida, xususan, yer resurslari bilan bog'liq ishlarda, kundalik ehtiyojlari uchun shart-sharoitlar yaratishlari yoki yuqori tashkilotlarda rahbarlik qilish qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Ayollarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi, boshqaruv sohasida ayollar ulushining ko'payishi, ta'lim sohasida ayollarga e'tiborning kuchayishi hamda gender ekologik omillarning ko'payib borishi kuzatilmoqda.

² Нехвядович А.А. Пятая цель устойчивого развития «Гендерное равенство» и ее реализация в Беларуси // Культура и экология – основы устойчивого развития России. Зеленый мост через поколения. Часть 1. – Екатеринбург, 2019. – С. 211-213.

³ <https://www.ilo.org/infostories/enGB/Stories/Employment/barriers-women#pressure>

Shuningdek, ekologiya va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy falokatlardagi gender farqlar shuni ko'rsatadiki, ayollar erkaklarga qaraganda iqlim o'zgarishlaridan ko'proq aziyat chekishi aniqlandi.

Iqlim o'zgarishi ijtimoiy va gender tengsizliklarni yanada kuchaytiradi va erkaklarga nisbatan ayollar ko'proq aziyat chekadi. Jumladan, tabiiy ofatlarda ko'proq ayollarni himoyasiz qoldirib, yashash sharoiti yomonlashishi natijasida hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'iladi, iqlim o'zgarishi gender asosdagi zo'ravonlik hamda ijtimoiy keskinlik va mojarolar xavfini oshiradi. Chunki ko'plab ayollarda iqlim o'zgarishi oqibatida ishsizlik vujudga keladi, oqibatda og'ir mehnat qilishga majbur bo'lishadi. Ayollar va qizlar ko'pincha uy xo'jaligi uchun mas'uldirlar va oila a'zolariga g'amxo'rlik qilishlari sababli uy ishlariga ko'proq, o'qish va o'zi uchun esa kam vaqt ajratadi. Iqlim o'zgarishi natijasida erkaklarda ishsizlik muammosi kelib chiqadi va bu, o'z navbatida, oilada ayollarning yukini orttiradi.

Shu bilan birga, energiya resurslari tanqisligidan ham ayollar ko'proq aziyat chekadi. Bu muammo, ayniqsa, qishloq joylardagi ayollar uchun dolzarbdir. Elektr ta'minotidagi uzilishlar tufayli qishloq ayollari ko'p vaqtlarini uy yumushlariga sarflashga majbur bo'ladilar. Yorug'likning pastligi, xona ichidagi havoning ifloslanishi va og'ir o'tin yoki boshqa yoqilg'ilar yukini tashish ayollar sog'ligiga, xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi, ya'ni elektr energiyasi past bo'lgan ko'chalarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik hodisalari ko'payadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 940 million kishi (dunyo aholisining 13 foizi) elektr energiyasidan foydalana olmaydi. 3 milliard aholi (dunyo aholisining 40 foizi) ovqat tayyorlash uchun toza yoqilg'iga ega emas. Ichki havoning ifloslanishi sog'liq uchun yuqori xavfga tug'diradi⁴.

Energiya resurslari kamligi ayollar va bolalarga nomutanosib ravishda zarar yetkazadi, ular haftasiga 20 soatgacha biomassa (yog'och, go'ng, ekin chiqindilari) yig'ish va ichimlik suvi tashishga (maktabga borish, o'qish va o'z hayotini yaxshilash kabi foydali ishlar o'rniga vaqtini besamar yo'qotishiga) majbur bo'ladi. Ayollar dunyo aholisining 50 foizini tashkil qiladi, ammo deyarli 75 foizi energiya qashshoqligida

⁴ Access to Energy – Our World in Data

yashaydi. “Qashshoqlikning ko‘payib borishi” elektr energiyasidan mahrum bo‘lgan hududlarga xos bo‘lib, global energiya ta‘minotidagi ulushning 45 foizga ortib borayotgani uning ahamiyatini ko‘rsatadi. Har bir BMT Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari zarur shart sifatida elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi ajablanarli emas. Deyarli har 5 kishidan bittasida elektr quvvatidan foydalanish imkonoyati kam, yana milliardlab odamlar esa elektr energiyasidan butkul mahrum⁵.

Iqlim o‘zgarishi aholi hayotiga tahdid solmoda. Jumladan, O‘zbekistonda 1998-yilda Alaudin ko‘lining portlashi natijasida Pomir-Oloy tog‘ tizmasida yuzaga kelgan “GLOF” muzligi erishi toshqin bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Oqibatda Shohimardon qishlog‘ining 100 dan ortiq aholisi hayotiga zomin bo‘ldi. 2018-yilda, axborot agentliklari ma‘lumotiga ko‘ra, Qashqardaryo viloyatida sel oqibatida 200 ta uy zarar ko‘rgan, 12 ta ko‘prikn suv olib ketgan. Bunga misol sifatida 2021-yil noyabr oyi boshida sodir bo‘lgan chang va qum bo‘ronlarini eslatib o‘tish mumkin. Bu so‘nggi 150 yildagi eng kuchli chang va qum bo‘roni bo‘ldi⁶.

Shuningdek, iqlim o‘zgarishi salomatlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, jumladan, tabiiy ofatlar oqibatida yetkazilgan jarohatlar hamda oziq-ovqat ishlab chiqarishning kamayishi to‘yib ovqatlanmaslik, sanitariya sharoitlarining yetarli emasligi tufayli yuqumli kasalliklarga duchor bo‘lish va travmadan keyingi stress kabi omillarni keltirib chiqaradi.

Iqlim o‘zgarishi odamlarni o‘z uyidan mahrum qilmoqda. Buning sababi sifatida ekstremal ob-havo hodisalari, ya‘ni suv toshqini va o‘rmon yong‘inlari odamlarning uylarini vayron qilib, tark etishga majbur qilayotganini keltirish mumkin. Bunday iqlim o‘zgarishi majburiy ko‘chirish va migratsiyaga sabab bo‘ladi. Birgina 2020-yilda ob-havo bilan bog‘liq tabiiy ofatlar tufayli 30 million kishi o‘z uyini tashlab ketgan bo‘lsa, mojarolar va zo‘ravonliklar tufayli bu ko‘rsatkich 9,8 millionni tashkil etgan. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, 2050-yilga borib, 216 million kishi o‘z mamlakatini tark etishi taxmin qilinmoqda. Aholi zaif qatlamlarining yangi toifasi

– iqlim qochqinlari paydo bo‘ladi, ularning muhim qismini ayollar tashkil etadi. Shu bilan birga, 2050-yilga borib, Markaziy Osiyoning o‘zidayoq 2,4 milliongacha iqlimiy muhojirlar paydo bo‘lishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari qo‘mitasining ta‘kidlashicha, mamlakatlar iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq holatlar tufayli o‘z vatanida hayoti xavf ostida qolgan odamlarni deportatsiya qila olmaydi⁷, ya‘ni iqlim o‘zgarishi sababli davlatlar inson huquqlari sohasida yangi majburiyatlarga ega.

Mamlakatimizda jamiyatning turli jabhalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar faoliyati e‘tirof etilmoqda, munosib taqdirlanmoqda, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda⁸.

O‘zbekistonda ekologiya sohasida gender tengligini ta‘minlash maqsadida bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan:

- qishloq xo‘jaligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi;
- strategiyaga erishish ko‘rsatkichlaridan biri sifatida “Qishloqdagi ayollar tomonidan boshqariladigan korxonalar sonining ko‘payishi” kiritilgan;
- Qishloq xo‘jaligi vazirligi tuzilmalarida ishlaydigan ayollar ulushi: 2019-yilda – 417 nafar (13,7%), shundan rahbarlik lavozimlarida: 6 nafar ayol – (1,1%);
- fermer xo‘jaliklariga rahbarlik qilayotgan va qishloq xo‘jaligi sektorida rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan qishloq ayollari ulushi: 2018-yilda – 9371 nafar (6,2%); 2019-yil – 8650 nafar (5,6%);
- “qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida jami bandlikdagi ayollar ulushi” ko‘rsatkichi kiritildi;
- 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan elektr ta‘minoti konsepsiyasi qabul qilindi;
- Energetika vazirligi Gender harakati rejasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqladi;
- Gender kengashi tuzildi.

⁵ End Energy Poverty and Empower Women (forbes.com)

⁶ “Hukumat boshqa sayyorada yashaydi, azizim”. Ijtimoiy tarmoqdagilar chang bo‘roni haqida nima demoqda? | Qalampir.uz

⁷ 5 million climate migrants may appear in Central Asia by 2050 (kun.uz)

⁸ Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар: услубий қўлланма / Холикова М., Ишанханова Г., Пулатова Ш. – Тошкент: “Академнашр”, 2021. – 208 б.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turida jami band ayollarning ulushi, %

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	43,7	44,3	43,1	43,2	42,4	42,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	38,4	38,7	38,6	38,6	38,6	39,0
Andijon viloyati	49,1	49,8	49,4	49,4	49,4	49,5
Buxoro viloyati	50,4	54,3	48,4	51,0	48,2	48,0
Jizzax viloyati	43,4	43,3	43,4	43,4	43,4	41,5
Qashqadaryo viloyati	44,0	44,0	44,9	44,9	44,9	44,9
Navoiy viloyati	49,8	52,2	43,4	47,8	45,8	41,2
Namangan viloyati	41,4	42,0	41,7	42,8	42,0	41,2
Samarqand viloyati	34,3	34,6	34,5	34,5	34,5	35,1
Surxondaryo viloyati	48,4	48,7	48,6	48,6	48,6	48,5
Sirdaryo viloyati	49,2	49,1	49,2	46,0	44,9	45,8
Toshkent viloyati	48,6	48,6	43,9	42,6	37,9	39,5
Farg'ona viloyati	39,8	40,2	40,0	40,0	39,7	39,1
Xorazm viloyati	38,5	38,6	38,6	38,2	38,5	39,2
Toshkent shahri	44,7	44,2	44,4	44,4	44,4	43,6

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi (Gender statistikasi)⁹

⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Gender Statistikasi

Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar ijtimoiy hayot ravnaqiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan bo'lgan genderga oid, ya'ni erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq va imkoniyatlari muammolarini o'z vaqtida bartaraf etish, rahbar va xodimlarning menejment sohasida ishlashining ilg'or usullari hamda bilim va kompetensiyalarini o'zlashtirganiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuning uchun mazkur yo'nalishda korporativ faoliyatni (mutaxassislarning ilmiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy bilimlarini boyitish, kasbiy kompetensiyasini oshirish) yo'lga qo'yish lozimligi anglanadi.

Xususan, 2021-yil holatiga ko'ra, mamlakatimizda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turida jami bandlardan ayollarning ulushi 42,4% ga yetdi. Yurtimiz bo'yicha ushbu sohada band bo'lgan aholining 49,5 foizi Andijon viloyatiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida 2016–2021-yillar oralig'idagi o'rtacha ko'rsatkich 48,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, Buxoro viloyatida 2017-yil holati bo'yicha ko'rsatkich 54,3 foizga, 2021-yilda esa 48 foizga o'zgargan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jamiyatda iqtidorli, bilimli rahbar lavozimidagi ayollar sonini ko'paytirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bilan birga, joylarda ekologiya, qishloq va baliq xo'jaligi,

iqlim resurslari faoliyati kabi sohalarda ayollarga turli shart-sharoitlarni yaratish va gender tengligini ta'minlash lozim.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Bugun oilada, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ekologiya sohasida gender muvozanatini me'yorga keltirish, ayollar va qizlar imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ushbu sohada ayollarning o'rnini oshirish dolzarb bo'lib, nafaqat ekologiya, balki boshqa sohalarda ayollarning to'liq va teng ishtirokini ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini oshirish, rahbar ayollar safini yanada kengaytirish, yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir. Ayollarning bunday sohalarda o'rnini oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizning yanada gullab-yashnashi, soha mutaxassislarning ish faoliyatida shaffoflikni oshirishi va boshqa ijobiy omillar uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, quyidagicha taklif va tavsiyalar berish mumkin:

- O'zbekistonda gender tengligini yanada rivojlantirish uchun ayollar va erkaklar orasida

genderga oid bilim va malakalarini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, ekologiya va qishloq xo'jaligi sohasida ayollar va erkaklar tengligini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish;

- gender va ekologiya sohasida turli o'quv kurslari tashkil qilish;

- qishloq xo'jaligi sohasidagi ayollarning gender tengligini ta'minlashda turli sharoitlar yaratish va rag'batlantirish;

- erkaklar va ayollar xulq-atvori bilan bog'liq gender stereotiplarni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun seminar mashg'ulotlar tashkil qilish;

- gender va ekologik bilimlar samaradorligini oshirish uchun o'quv qo'llanmalar tashkil qilish;

- jinslar tengligiga erishish, xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini ko'rib chiqish;

- ekologiya va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy falokatlarda ayollar va bolalarga yordam ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish;

- sohaga oid bilimlari hamda kadrlar malakasini oshirish faoliyatini yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muxitdinova F. Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglikning huquqiy asoslari // Янги Ўзбекистон/ Правда Востока.
2. Нехвядович А.А. Пятая цель устойчивого развития «Гендерное равенство» и ее реализация в Беларуси // Культура и экология – основы устойчивого развития России. Зеленый мост через поколения. Часть 1. – Екатеринбург, 2019. – С. 211-213.
3. Холикова М., Ишанханова Г., Пулатова Ш. Гендер тенглиги: гождан конунга кадар: услубий кўлланма. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 208 б.
4. Короткевич А.В. Гендерное равенство – социальный аспект. – 2017.
5. Монастырёва А.Е. Новые концептуальные метафоры в современном русском языке: проблемы экологии, гендерного равенства, борьба с коронавирусом.